



O'ZKIMYOSANOAT

AKSIYADORLIK JAMIYATI

2025-yil 28-mart

“O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2025-yil 18-aprel kuni o'tkaziladi

“O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlari diqqatiga!

“O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2025-yil 18-aprel kuni soat 16:00 da Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy (“O'zkimyosanoat” AJ ma'muriy binosi)da o'tkaziladi.

KUN TARTIBI:

1. “O'zkimyosanoat” AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. “O'zkimyosanoat” AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
3. “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ ustav kapitalidagi “O'zkimyosanoat” AJga tegishli 100 foiz aksiya paketini o'tkazish.
4. “O'zkimyosanoat” AJ ustaviga o'zgartirish kiritish orqali uni yangi tahrirda tasdiqlash.
5. “O'zkimyosanoat” AJning yangi tahrirdagi “Kuzatuv kengashi to'g'risida”gi nizomini tasdiqlash.
6. “O'zkimyosanoat” AJning yangi tahrirdagi “Ijroiya organi to'g'risida”gi nizomini tasdiqlash.

Umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun aksiyadorlar reyestri 2025-yil 26-mart holatiga hamda umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega aksiyadorlar reyestri 2025-yil 14-aprel holatiga shakllantiriladi.

Umumiy yig'ilish qatnashchilarini ro'yxatga olish 2025-yil 18-aprel kuni soat 15:30 da boshlanib, soat 16:00 gacha davom etadi.

Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun aksiyadorlar o'zi bilan pasport, aksiyadorlar vakillari esa – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma bilan qatnashishlari so'raladi.

Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan tanishish uchun quyidagi manzil va telefon raqamlariga murojaat

qilishingiz mumkin: Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy, telefon: +(99878) 140-74-97, 140-74-98.
E-mail: info@uks.uz

“O'zkiyosanoat” AJ kuzatuv kengashi

source:

"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkiyosanoat.uz/oz/corporate/calendar/meeting-20250418>